

ISSN
2181-2128

2021
IV SON



"ЛОГИСТИКА ВА ИҚТИСОДИЁТ"
илмий электрон журнали

"ЛОГИСТИКА И ЭКОНОМИКА"
научно-электронный журнал

"LOGISTICS AND ECONOMY"
scientific-electronic journal

www.economyjournal.uz

Электрон журнал Олий Аттестация комиссиясининг миллий илмий нашрлари рўйхатига киритилган.



ТАҲРИРИЯТ КЕНГАШИ

Таҳририят Кенгаши раиси

Муҳиддин Бахритдинович Калонов

иқтисодиёт фанлари доктори (DSc)

Таҳририят Кенгаши раиси ўринбосари

Комил Раббимович Хотамов

иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

Бош муҳаррир

Фахриддин Икромович Исаев

иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

Таҳририят Кенгаши аъзолари:

и.ф.д., акад. Каландар Ходжаевич Абдурахманов

и.ф.д., проф. Абдуқодир Ҳамидович Тошқулов

т.ф.д., проф. Кунгратбай Авазимбетович Шарипов

и.ф.д., проф. Одил Қаландарович Абдурахманов

и.ф.д., доц. Мансур Пўлатович Эшов

и.ф.д., проф. Гулнора Каландаровна Абдурахманова

и.ф.д., проф. Мамаюнус Қаршибоевич Пардаев

и.ф.д., проф. Нодир Хосиятович Жумаев

и.ф.д., проф. Тулқин Хайитмуродович Фарманов

и.ф.д., проф. Алишер Жўраевич Тўйчиев

и.ф.д., проф. Адхам Азизович Фаттахов

и.ф.д., проф. Садридин Каримович Худойқулов

и.ф.д., проф. Султонали Умаралиевич Мехмонов

и.ф.д., проф. Шойзоқ Рахматович Холмўминов

т.ф.д., проф. Алимжон Ахмаджонович Рискулов

и.ф.ф.д.,(PhD) Kliment Lazarashvili (АҚШ, Жоржиа ХУ)

и.ф.д., проф. Hermann Sterzinger (Германия, Мюьнхен ТУ)

и.ф.д., проф. Masato Hiwatari (Япония, Токио ХУ)

и.ф.д., проф. Михаил Исакович Кутер (Россия Федерацияси, Кубан ГУ)

и.ф.д., проф. Sung Dong Ki (Корея, Сеул МУ)



и.ф.д., проф. Татаьяна Борисовна Леберьт (Россия Федерацияси, Урал ГНТУ)
и.ф.д., проф. Зият Ниязович Қурбанов
и.ф.д., проф. Шахноза Жасуровна Эргашходжаева
и.ф.д., проф. Акром Абдиевич Хошимов
и.ф.д., проф. Расул Олимович Холбеков
и.ф.д., проф. Ақтам Усманович Бурханов
и.ф.д., проф. Баходир Акрамович Хасанов
и.ф.д., проф. Каримжон Бакиджанович Ахмеджанов
и.ф.д., проф. Неъматулла Фатхуллаевич Каримов
и.ф.д., проф. Олим Мамаюнусович Пардаев
и.ф.д., доц. Бегматжон Юлдашалиевич Мақсудов
и.ф.д., доц. Нурбек Кадиорович Ризаев
и.ф.д., доц. Жаҳонгир Жалолдинович Урмонов
и.ф.д., доц. Исламбек Машарипович Ниязметов
и.ф.д., доц. Нодира Баходировна Абдусаломова
и.ф.н., проф. Шахло Тургуновна Эргашева
и.ф.н., доц. Норбута Эшназарович Бабахалов
и.ф.ф.д (PhD), доц. Мунис Қурбонович Абдуллаев
и.ф.ф.д., проф. Одилжон Собирович Абдураззаков (Германия, Кёльн БМ)
и.ф.ф.д (PhD). Бобир Ортиқмирзаевич Турсунов
и.ф.ф.д (PhD). Мақсуд Сувонқулович Рустамов
и.ф.ф.д (PhD). Илҳом Ғиёзович Кенжаев
т.ф.ф.д (PhD). Ботир Инатович Абдуллаев

Масъул муҳаррир

и.ф.д., доц. Гулнора Мардиевна Шадиева

Веб-администратор А.Маматов

"ЛОГИСТИКА ВА ИҚТИСОДИЁТ"

илмий электрон журнали

2021 ЙИЛ
IV СОН

МУНДАРИЖА:

Nosirova N.	<i>Foreign experience of supporting small business and export potential development in crisis period</i>	6
To'rayev Sh.Sh.	<i>Iqtisodiyot tarmoqlarida soliq yukining qiyosiy tahlili</i>	16
Yaxyaeva I.K.	<i>O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoatida "tejamkor ishlab chiqarish" kontseptsiyasini tatbiq etish masalalari</i>	23
Абдулазизова Ў.Н.	<i>Роль государства во взаимоотношениях реального и финансового секторов экономики</i>	29
Абдурахманов О.К.	<i>Налоговые вызовы цифровой экономики</i>	37
Абдурахмонов И.Х.	<i>Суғурта ва унинг соҳалари шаклланишининг назарий асослари</i>	45
Акбаров Ҳ.М.	<i>Ўзбекистон Республикасида валюта бозори ва уни ривожланиш тенденциялари</i>	55
Алимов Б.Б.	<i>ДАСК "Ўзагросуғурта" суғурта компаниясининг молиявий ҳолати таҳлили</i>	64
Ахадов Б.А.	<i>Банк рискларининг иқтисодий моҳияти ва классификацияси</i>	72
Бобобеков Ф.Р.	<i>Факторинг: муқобил молиявий хизмат тури ва унинг афзалликлари</i>	80
Гофуров Д.	<i>Давлат харидларини ташкил этиш ва амалга оширишни такомиллаштиришда илғор хориж тажрибасининг аҳамияти</i>	90
Жумаев Д., Насруллоев Ҳ. Гиясов С.А.	<i>Солиққа оид ҳуқуқбузарликларни олдини олишда давлат солиқ хизмати органлари фаолиятини автоматлаштиришнинг ўрни</i>	97
Зайнутдинов И.С. Имамова Н.М. Арифханова Х.Ш. Атақулов У.М.	<i>Молиявий активларни бошқариш амалиётининг таҳлили</i>	102
Калонов М.Б.	<i>Валюта операциялари ҳисобини ташкил этиш</i>	107
Каримқулов Ж.И., Умирзоқов Ж.А., Абдуқаҳоров Б.Ў.	<i>Иқтисодий интеграциянинг Ўзбекистон иқтисодиётидаги аҳамияти</i>	114
Касимова Г.А., Мухаммадқулов А.А.	<i>Ўзбекистонда махсус иқтисодий зоналарни рақамли иқтисодиёт орқали ривожлантириш йўналишлари</i>	119
Курбонбекова М.Т.	<i>Бюджетнинг ғазна ижросида ижтимоий соҳа таркибидаги бюджет ташкилотлари харажатларини тўлаш ва назорат қилиш механизми</i>	125
	<i>Ўзбекистонда пул таклифини тартибга солиш билан боғлиқ бўлган муаммолар</i>	132



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'QIMACHILIK SANOATIDA "TEJAMKOR ISHLAB CHIQUARISH" KONTSEPTSIYASINI TATBIQ ETISH MASALALARI

Yaxyaeva I.K.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Maqolada sanoatda «tejamkor ishlab chiqarish» nazariy talqini va uni boshqarishning asosiy tamoyillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tejamkor ishlab chiqarish, xarajat, ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot, yengilsanoat.

ISSUES OF IMPLEMENTATION OF THE CONCEPT OF "ECONOMIC PRODUCTION" IN THE TEXTILE INDUSTRY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Yaxyaeva I.K.

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article presents the theoretical interpretation of "economical production" in industry and the basic principles of its management.

Keywords: cost-effective production, cost, production costs, product, light industry.

1. Kirish.

Jahon amaliyotida sanoat korxonalarida resurs tejamkorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlaridan samarali foydalanishga qaratilgan qator muammolarning yechimini ta'minlash yuzasidan maqsadli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, to'qimachilik sanoat korxonalarida innovatsion texnologiyalar tizimini joriy etish, sanoat korxonalarida energiya sarfini kamaytirish, sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxidagi moddiy xarajatlar sarfini kamaytirish, korxonalarining ichki imkoniyatlaridan to'laonli foydalanish, iqtisodiy salohiyatini innovatsion yondashuvlar asosida oshirish shular jumlasidandir. Shu boisdan, to'qimachilik sanoati korxonalarida resurs tejamkorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishni yanada rivojlantirish asosiy ilmiy tendentsiyalardan hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i sifatida to'qimachilik sohasining sifat jihatidan jadal rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli va maqsadli dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «milliy iqtisodiyot tarkibida sanoatning ulushini ko'paytirish, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish» ustuvor vazifalar sifatida belgilangan (Farmon, 2017). Mazkur vazifalarning samarali ijrosi mamlakatimizda to'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish kontseptsiyasini tadbqiq etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Yengil sanoatda "tejamkor ishlab chiqarish" zamonaviy holatining uslubiy apparatini tizimlashtirishda xorijiy va MDH tadqiqotchilarining Scopus, ProQuest, e-Library axborot manbalaridagi bibliografik ma'lumotlar bazalarida e'lon qilingan ilmiy ishlari va maqolalaridan foydalanilgan.

Ishlab chiqarishda tejamkorlik tushunchasini birinchi bo'lib Krafchik (1988) joriy etgan. «Tejamkorlik» (Lean) deganda muallif yangi tipdagi ishlab chiqarishda ortiqcha narsa umuman bo'lmasligini tushungan. «Lean» atamasi «mehnat va samarali ishlashga qodir

bo'lish» ma'nosida tushuniladi (Vumek va Jons, 1990). Operatsion menejment bo'yicha kitoblarda tejamkor ishlab chiqarish o'zbek tilida «to'g'ri», «tekis» yoki «tejamkor» ishlab chiqarish degan variantlarga ega.

Ko'pchilik mualliflar (Xobbs (2003), Ruffa, Alukal (2003), Koskela (1993) tejamkor ishlab chiqarishni tejamkor ishlab chiqarish printsiplariga asoslangan korxonani boshqarish falsafasi sifatida tavsiflaydilar.

MDH tadqiqotchilari (Berezovskiy, 2014; Adler va Shper, 2009; Lapidus, 2007)ni korxonaga uchun omon qolish vositasi va ishlab chiqariladigan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida tavsiflaydilar.

2. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 256,7 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 97,3 % ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (82,6 %)ni tashkil etdi.

2020 yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,3 % ni, fizik hajmi indeksi 14,4 % ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi esa 30342,0 mlrd. so'mni tashkil etdi¹.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal sura'tlarda rivojlanib borayotgan bir paytda sanoat tarmog'ining o'rni bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat sohasini innovatsion rivojlantirish, jahon talablariga mos keladigan darajada texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, ushbu sohada eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kengaytirish zamon talablaridan biridir.

Sanoat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo'nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarining ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Respublikada olib borilayotgan jadal islohotlar natijasida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va raqobatdoshligini ta'minlash bo'yicha bir qator ijobiy natijalarga erishilgan.

Tahlil qilinayotgan 2012-2019 yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibida to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 109,6-115,5 foizni tashkil etdi. Mazkur holat to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati rivojlanishining har tomonlama tahlili, raqobatning kuchayishi sharoitida jahon bozorining o'zgaruvchan konyunkturasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, jadal rivojlanish mexanizmini ishlab chiqish hamda korxonalarda samarali korporativ boshqaruv tizimida zamonaviy uslublarni keng joriy etish hisobiga yuz bergan.

Ma'lumki, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi tarkibiga korxonaga tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarimtayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, nosanoat bo'linmalarga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi, ya'ni ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar hamda sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar) kiradi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi joriy narxlarda 408296,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019 yilning shu davri bilan taqqoslanganda 0,4 % ga oshdi. YaIM deflyator indeksi 2019 yilning yanvar-sentyabr oylaridagi narxlarga nisbatan 111,8 % ni tashkil etdi.

Respublikamizda so'ngi yillarda, sanoat korxonalari orasida to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarining ulushi ham ortib bormoqda. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan mamlakat YaIM o'sish sur'ati va uning tarkibida to'qimachilik mahsulotlarini o'sish sur'atini ko'rish mumkin (1-jadval).

¹ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi rasmiy sayti www.stat.uz sayti ma'lumotlari.

**O'zbekiston iqtisodiyotida YaIM va to'qimachilik tarmog'ining o'sish sur'ati
(trln.so'mda)²**

Ko'rsatkichlar	Yillar							
	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
YaIM mlrd.so'm	120,1	144,5	177,2	210,2	242,5	302,5	406,6	511,8
Sanoat ishlab chiqarish hajmi	57,6	70,6	84,2	97,6	111,9	148,8	235,3	322,5
Qayta ishlash sanoati	43,6	55,3	67,1	77,1	89,8	117,7	189,6	254,8
To'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish	7,6	8,9	10,8	13,2	13,3	16,8	24,8	29,9

Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, 2019 yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 322535,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan taqqoslangan, bu ko'rsatkich 137,0 % ga oshgan. Shuningdek, sanoat sohasida qayta ishlash sanoati va to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmog'i ham o'z o'rniga ega bo'lib, 2019 yilda mamlakatimizda qayta ishlash sanoatida 254860,9 mlrd. so'mlik (2012 yilga nisbatan 5,8 barobarga ko'p yoki 2018 yilga nisbatan 34,4% ga oshgan) mahsulot yaratildi hamda 29946,6 mlrd. so'mlik to'qimachilik mahsulotlari (2012 yilga nisbatan 3,9 barobarga ko'p yoki 2018 yilga nisbatan 20,6 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.

Mazkur holat yuqori sifatli tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksportini kengaytirish, milliy brendlarni jahon bozorlariga ilgari surish maqsadida ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalar, nou-xau, dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy etish, furnitura va aksessuarlarning zamonaviy namunalari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, paxta xom ashyosini yetishtirishdan boshlab, unga dastlabki ishlov berish, mahsulotni paxta tozalash korxonalarida keyingi qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor to'qimachilik mahsuloti chiqarish bosqichigacha bo'lgan ishlab chiqarishni integratsiya qilishni nazarda tutuvchi rivojlanishning klasterlarini tashkil etish hisobiga yuz bergan.

Bundan tashqari 2019 yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 322535,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan taqqoslangan, bu ko'rsatkich 137,0 % ga oshgan. Shuningdek, sanoat sohasida qayta ishlash sanoati va to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmog'i ham o'z o'rniga ega bo'lib, 2019 yilda mamlakatimizda qayta ishlash sanoatida 254860,9 mlrd. so'mlik (2012 yilga nisbatan 5,8 barobarga ko'p yoki 2018 yilga nisbatan 34,4% ga oshgan) mahsulot yaratildi hamda 29946,6 mlrd. so'mlik to'qimachilik mahsulotlari (2012 yilga nisbatan 3,9 barobarga ko'p yoki 2018 yilga nisbatan 20,6 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.

Respublikamizda so'nggi yillarda sanoat korxonalarida to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarining ulushi ham ortib bormoqda. Statistika ma'lumotlarga e'tibor qaratar ekanmiz, 2020 yilning yanvar-noyabr oylarida sanoat sohasida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,3 % ni, fizik hajmi indeksi 14,4 % ga oshganining ishlab chiqarish hajmi esa 30342,0 mlrd.so'mni tashkil etganining guvohi bo'lamiz.

To'qimachilik sanoati ulushi hamda fizik hajm indeksi to'g'risida ma'lumot³

	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Ishlab chiqariladigan (qayta ishlanadigan) sanoatda to'qimachilik mahsulotlarining ulushi, % da	17,3	15,9	15,9	16,9	14,6	13,9	13,1	11,8
Sanoatda ishlab chiqarish tarkibida to'qimachilik mahsulotlarining ulushi, % da	17,6	16,1	16,2	17,2	14,9	14,2	13,1	9,3
To'qimachilik sanoatining fizik hajm indeksi, % da	107,6	113,2	107,2	110,5	109,0	100,5	107,4	105,3

² O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi rasmiy sayti www.stat.uz sayti ma'lumotlari.

³ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi rasmiy sayti www.stat.uz sayti ma'lumotlari.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2019 yilda sanoat sohasi tarkibida to'qimachilik mahsulotlarining ulushi (9,3 %) o'tgan davrlarga nisbatan pasayganligi kuzatildi. Sanoat sohasi tarkibida to'qimachilik mahsulotlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan davri 2012 yildan (17,6 %) 2015 yilgacha (17,2 %) bo'lgan davr oralig'iga to'g'ri kelmoqda (2-jadval).

Shuningdek, 2020 yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajmi indeksi esa 102,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 8774,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ma'lumotlarga e'tibor qaratar ekanmiz (3-jadval), mamlakatimizda 2019 yilda to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini tomonidan jami 29946,6 mlrd. so'mlik (2018 yilga nisbatan 20,6 % ga oshgan) mahsulot yaratilgan bo'lsa, kiyim ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini tomonidan esa 9165,8 mlrd. so'mlik (2018 yilga nisbatan 18,5 % ga oshgan) mahsulot tayyorlangan. Bu ko'rsatkichlar 9 yil davomida, ya'ni 2011 yilga nisbatan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 4,4 barobarga hamda kiyim ishlab chiqarish 11,5 barobarga oshganligini ko'rish mumkin.

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda mamlakatimizda sanoat sohasida kiyim ishlab chiqarish korxonalariga nisbatan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarining ulushi hamda yaratgan mahsulotlari hajmi boshqalarga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega.

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 1 082 ta loyiha bo'yicha 9,5 trln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 107,4 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

3-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari hajmi⁴

Yillar	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati korxonalarini		Kiyim ishlab chiqarish sanoati korxonalarini	
	mlrd.so'm	foizda %	mlrd.so'm	foizda %
2011	6 736,9	101,3	795,2	119,6
2012	7 672,9	107,6	996,8	100,1
2013	8 898,3	113,2	1 165,8	106,1
2014	10 839,5	107,2	1 308,7	113,1
2015	13 241,7	110,5	1 585,3	111,5
2016	13 335,3	109,0	4 318,5	108,9
2017	16 763,3	100,5	6 108,2	110,5
2018	24 835,2	107,4	7 732,2	103,3
2019	29 946,6	105,3	9 165,8	108,7

Mamlakatimiz eksport salohiyatini kengaytirish, eksport qiluvchi tashkilotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, raqobatbardosh eksport mahsulotlari ishlab chiqarishning ko'paytirilishini rag'batlantirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan 2018 yil 29 noyabrda «Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5587-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda 2019 yilda jami 1626,9 mln. AQSh dollari miqdorida to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirildi. Bu ko'rsatkich o'tgan 2018 yilga nisbatan 25,1 % ga ko'pligini bildiradi. 2013 yilga nisbatan taqqoslanganda mamlakatimizda 1,9 barobar ko'p miqdorda to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari eksport qilinganligini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, kichik biznes sub'ektlarini sanoat faoliyatiga keng jalb etish, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan 2019 yil 1 mayda «Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4302-son qarorining qabul qilinishi hududlarda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish darajasini oshirdi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi rasmiy sayti www.stat.uz sayti ma'lumotlari.

2020 yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalarning asosiy moliyalashtirish manbaidan biri xorijiy investitsiyalar va kreditlar bo'lib, ular 5522,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, 1521,3 mlrd. so'm to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan jalb qilingan⁵.

4. Xulosa va takliflar.

To'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha tahlil etilgan statistik ko'rsatkichlarga ko'ra, O'zbekiston to'qimachilik sanoatining raqobatda zaif tomonlari sifatida to'quvchilik dastgohlarining ma'naviy eskirganligi, malakali muhandis-texnik xodimlarning yetishmasligi, gazlama, mato mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvning pastligi, tikuv va trikotajga yo'naltirilgan mahalliy matolar ishlab chiqarish rivojlanmaganligi, ayrim hududlarda tolani o'zlashtirish darajasining pastligi, xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmentini joriy etgan korxonalar sonining kamligi aniqlandi.

Ushbu masalalar o'zaro bir-biriga bog'liq, tolani o'zlashtirish darajasining pastligi to'qimachilikka, mato ishlab chiqarish rivojlanmaganligi kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga, zamonaviy texnika bilan jihozlanish darajasining pastligi xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmentini joriy etilmaganligiga kuchli ta'sir etmoqda. Ushbu muammolar yechimini topishda to'qimachilik korxonalarida "lean production" kontseptsiyasini tadbiq etish va shu bo'yicha korxonalaridagi muhandis-texnik xodimlarni muntazam o'qitish tizimini (kouching) rivojlantirishga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Tejamkor ishlab chiqarish mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning barcha bosqichlarida yo'qotishlar bilan kurashishga qaratilgan. Tizim samarali ishlashini ta'minlash uchun tejamkor ishlab chiqarish vositalarini to'g'ri tanlash zarur. Mahsulot va xizmatning qiymatini har bir bosqichda kompaniya xodimlari yaratadi, shunday ekan kompaniyaga sodiq va foydali bo'ladigan soha mutaxassislarini puxta tayyorlash zarur.

Адабиётлар/Литература/Reference:

Alukal, G. (2003) Create a Lean, mean machine / G. Alukal // Quality progress. – Volume 36, No.4. – April p. 29–35.

Farmon (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son. / Decree (2017) No. PD-4947 of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan". www.lex.uz.

Farmon (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 29 noyabrda "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5587-son. / Decree (2018) No. PD-5587 of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev dated November 29, 2018 "On measures to further stimulate the export potential of domestic producers."

Hobbs, Dennis P. (2003) Lean Manufacturing implementation: A complete execution manual for any size manufacture / Dennis P. Hobbs. – Fort Lauderdale, FL: J. Ross Publishing. 264 p.

Koskela, L. (1993) Lean production in construction. Proceedings of the 10th ISARC / L. Koskela. Houston, Texas. May 24–26. – p. 47–54.

Krafcik, J. (1988) Triumph of the Lean Production System / J. Krafcik. Sloan Management Review, MIT. Vol. 30 # 1.

Qaror (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 1 maydagi "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4302-son. / Resolution (2019) No. PR-4302 of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev dated May 1, 2019 "On measures to further develop industrial cooperation and expand the production of high-demand products."

Womack, J., Jones, D., Roos, D. (1990) The machine that changed the world: The story of Lean Production. How Japan's Secret Weapon in the Global Auto Wars will Revolutionize Western Industry / J. Womack, D. Jones, D. Roos. – New York: Rawson Associates.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi rasmiy sayti www.stat.uz sayti ma'lumotlari.

Адлер Ю.П. Шпер В.Л. // (2009) Бережливость не роскошь, а средство выживания Ассоциации Деминга. / Adler Yu.P. Shper V.L. // (2009) Frugality is not a luxury, but a means of survival for the Deming Association.: <http://deming.ru/Statyi/BerNeRosk.htm>,

Березовский, Э.Э. (2014) Инструменты и методы управления промышленными предприятиями на основе Lean-концепции: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / Березовский Эдуард Эдуардович. – Краснодар, 26 с. / Berezovsky, E.E. (2014) Instruments and methods of industrial enterprise management based on the Lean-concept: abstract dissertation... cand. econom. Sciences: 08.00.05 / Berezovskiy Eduard Eduardovich. - Krasnodar, 26 p.

Лapidус В.А. (2007) Основы всеобщего менеджмента качества – TQM / В.А. Лapidус // Методическое пособие к учебному курсу TQM-1. – Н.Новгород: СЦМ «Приоритет», 126 с. / Lapidus V.A. (2007) Fundamentals of Total Quality Management - TQM / V.A. Lapidus // Methodological manual for the training course TQM-1. - N. Novgorod: STSM "Priority", 126 p.